

## **OTA-ONA VA O'QITUVCHI HAMKORLIGI: BOSHLANG'ICH SINFDA MUVAFFAQIYAT KALITI**

***BOYMURZAYEVA MALOHAT ALISHEROVNA  
SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND TUMANI  
32-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI  
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISI***

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ota-ona va o'qituvchi hamkorligining boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarning muvaffaqiyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Hamkorlikning samarali shakllari, ota-onaning ta'lif jarayonidagi faol ishtiroki va o'qituvchilarning ota-onalar bilan muloqot strategiyalari ko'rib chiqiladi. Muvaffaqiyat kalitlari sifatida ishonch, o'zaro tushunish, doimiy aloqalar va qo'llab-quvvatlash tizimlari ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari ota-ona-o'qituvchi hamkorligi ta'lif jarayonini yaxshilash va boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'r ganish natijalarini oshirish uchun muhimligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** ota-ona hamkorligi, o'qituvchi, boshlang'ich sinf, ta'lif, muvaffaqiyat kaliti, o'quvchi rivoji, ota-onaning ishtiroki, ta'lif jarayoni, muloqot, qo'llab-quvvatlash.

## **"PARENT-TEACHER COLLABORATION: THE KEY TO SUCCESS IN PRIMARY SCHOOL"**

***BOYMURZAYEVA MALOHAT ALISHEROVNA  
SAMARKAND REGION, SAMARKAND DISTRICT  
SECONDARY SCHOOL NO. 32  
PRIMARY SCHOOL TEACHER.***

**Annotation:** This article analyzes the impact of parent-teacher collaboration on the success of primary school students. Effective forms of cooperation, active involvement of parents in the educational process, and communication strategies between teachers and parents are examined. Keys to success such as trust, mutual understanding, consistent communication, and support systems are emphasized. The research findings highlight the importance of parent-teacher collaboration in improving the educational process and enhancing the learning outcomes of primary school students.

**Keywords:** parent-teacher collaboration, teacher, primary school, education, key to success, student development, parental involvement, educational process, communication, support.

## **“OTA-ONA VA O’QITUVCHI HAMKORLIGI: BOSHLANG’ICH SINFDA MUVAFFAQIYAT KALITI”**

Umumta’lim tashkilotining o‘quvchilarning oilalari bilan hamkorligining maqsadlari va shartlari o‘zaro munosabatlarni tashkil etishning muhim tarkibiy qismidir. Ularning yutug‘i ta’lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorlik qilish shakllari va usullariga -ularning birgalikdagi muloqotini va faoliyatini tashkil etish usullariga bog‘liq.

Bola shaxsining har tomonlama va barkamol rivojlanishida oila qanday rol o‘ynashini barchamiz yaxshi bilamiz, chunki bolalar ilk axloqiy saboqlarni oilada oladi, ularning xarakteri ham aynan oilada shakllanadi. Ota-onalar bilan ishlash sinf rahbari faoliyatida katta o‘rin tutadi. Sinf rahbari ota-onalarni butun pedagogik jarayonning sheriklariga aylantirishga harakat qilishi lozim. Buning uchun ushbu ishning turli shakllari va faoliyati qo’llaniladi -bularni quyida ko’rib chiqamiz. O‘quvchini tarbiyalashda har qanday muvaffaqiyatga faqat uning ota-onasiga individual yondashish orqali erishish mumkin, faqatgina o‘quvchilarning ota-onalar bilan aloqa o‘rnatish kerak. Bolaning oilasi bilan tanishish uchun birinchi sinf soatida bolalarga tarqatiladigan so’rovnomadan boshlanadi va bu so’rovnama har yili yangilab turadi. So’rovnama uyda ota-onalar bilan to’ldiriladi. Bu ma’lumotlar faqat sinf rahbari uchun emas, balki maktab hujjatlarini to’ldirish uchun ham kerak bo’ladi. Ushbu so’rovnama “ota-onalar to’g’risida ma’lumot”, “ish bilan ta’minlash” va “o‘quvchilarning sog’lig‘i holati”, balki sinf rahbarining bota-onalar bilan ishlashga imkon beradigan savollarni ham o’z ichiga oladi.

Inson kamoloti shunchalik murakkabki unga hayotiy tajriba yetarli emas uning uchun o‘rganish, bilim, o‘qish nihoyatda zarurdir. K.D.Ushinskiy «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi» hamda «Pedagogik adabiyot orasida»gi risolalarida Ota-ona uchun pedagogik bilim dastlab pedagogik adabiyotlar o‘rganishdan boshlanadi. Bola tarbiyasidagi bilim xalq ruhi bilan sug‘orilgan-xalqchilik g‘oyasiga asoslangandagina ota-ona bilimdon tarbiyachilik san’atiga ega bo‘la oladilar», –deyilgan. Pedagogik bilim ota-onalar uchun nihoyatda zarur. Bu bilim mакtabda, mahallada va kundalik axborot vositalari orqali berib boriladi. Lekin hayotimizdagi yangi-yangi muammolar pedagogik bilimini yanada kuchaytirishni, chuqurlashtirishni talab etadi.

Hamkorlikning turli shakllari va usullarini tanlash mакtab tomonidan amalga oshiriladi va ushbu bosqichda hal qilinishi kerak bo‘lgan muayyan vazifalarga, ota-onalarning qiziqishlari va intilishlariga, shuningdek, ushbu davrda jamiyatning rivojlanishdarajasiga bog‘liq.

Guruh va jamoaviy hamkorlikning asosiy shakllari quyidagilardan iborat: mакtab miqyosida va sinfda ota-onalar yig‘ilishi, mакtab tadbirlari, konsertlar

o'tkazish, ochiq kunlar (ota-onalar kuni), ota-onalar qo'mitasining tematik konferensiylarini tashkil etish va ular bilan yaqindan hamkorlik qilish, ota-onalarning ijodiy guruhlari bilan ishslash, savol-javob kuni, guruh maslahatlari, ota-onalarni maktab ma'muriyati, pedagogik jamoa bilan uchrashish, ota-onalar uchun ma'ruzalar;seminarlar, treninglar, o'quv filmlarini ko'rish va keyingi muhokamalar, ota-onalar maktablari.

Shunday qilib, aytishimiz mumkinki, umumiy ta'lif muassasasi va oila o'rtasidagi hamkorlikning barcha shakllarining mazmuni o'quvchilarning barkamol rivojlanishiga qaratilgan faol ta'lif o'zaro ta'sirini yaratishdir. O'qituvchilar va otaonalarning to'g'ri tashkil etilgan o'zaro aloqasi bolani yaxshiroq tushunishga, oilada va maktabda shaxsiy ta'lif muammolarini hal qilishning eng maqbul usullarini topishga yordam beradi. O'qituvchi esda tutishi kerakki, u foydalanadigan barcha shakllar bolalar, ota-onalar va maktab o'rtasida ishonchli munosabatlarni o'rnatishga, ularni bir jamoaga birlashtirishga, ularning muammolarini bir-birlari bilan bo'lishish va birgalikda hal qilish zarurligini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak. Oila va maktab hamkorligi maktab hayoti davomida etadigan jarayondir.

Bolani tarbiyalashda ko'p narsa o'qituvchi va ota-onalarning birgalikdagi faoliyatiga bog'liq. Lekin har doim ham ota-onalar yetarlicha aloqa o'rnatishmaydi. Afsuski, ba'zi otaonalar o'z burchini yaxshi tushunmay, farzandining tarbiyasida jiddiy xatoga yo'l qo'yishadi. Bunday ota-onalar nafaqat o'qituvchidan, balki boshqa ota-onalarning ijobiy tajribasi va energiyasidan ham kuchliroq alohida e'tibor va yordamga muhtojdirlar. Menimcha, bunday oilalar o'zidan o'zi qoloq bo'lib qolmaydi. Balki, ular moddiy tomondan qiynalib, bolasi tarbiyasiga e'tibor berisha olmayotgandir. Balki, ota-onsa o'rtasida ziddiyat paydo bo'lib, bolasiga vaqt ajrata olmayotgandir. Bunaqa taxminlarni ko'plab keltirish mumkin, lekin bu taxminlar bola kelajagini barbod qilmasligi kerak. Har qanday holatda ham bolaning o'sishi, tarbiyalanishi, ta'lif olishi birinchi o'rinda hisoblanadi.Ota-onalar maktabga majlisga bora olmasa o'qituvchi ota-onaning oldiga kelishi kerak.Bu ilmiy terminda oilaviy tashrif deya nomlanadi.Oilaviy tashrif -bu ota-onalar bilan ishslashishning samarali usuli hisoblanadi.Oilaga tashrif buyurganda, o'quvchining yashash sharoiti bilan tanishish asosiy maqsad sanaladi. O'qituvchi ota-onalar bilan o'quvchining fe'l-atvori, qiziqishlari va moyilliklari haqida, maktabga bo'lgan munosabati to'g'risida suhbatlashadi. Ota-onalarga farzandining muvaffaqiyati haqida ma'lumot beradi hamda uy vazifasini vaqtida tashkil qilish bo'yicha bir qancha maslahatlar berishi darkor. Ota-onalar bilan ishslashishning yana bir samarali usuli bu ota-onalar bilan yozishmalar hisoblanadi. Bu ota-onalarga o'z farzandlarining muvaffaqiyati haqida xabar berishning yozma shakli bo'lib, ota-onalarni maktabda o'tkaziladigan tadbirlar, bayramlar bilan tabriklash, bolalarni tarbiyalashda bir qancha maslahatlar berishga yo'l ochadi. Xat yozishda asosan do'stona ohangda muloqot qilish lozim

Tajribaning ko'rsatishicha, ota-onalar ko'pincha o'zlarini tarbiyaviy ishga to'la tayyor deb biladilar va maxsus pedagogik bilimlarni egallashni zarur deb hisoblamaydilar. Ota onalarning bu xusuiyatini taniqli pedagog va psixolog K. D. Ushinskiy o'z davrida ta'kidlagan edi. «Tarbiya san'ati, Deb degan edi u, — shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa juda oson ish bo'lib tuyuladi — odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo'lsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson bo'lib ko'rindi. Deyarli hamma tarbiya sabr-toqatni talab etishini e'tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug'ma qobiliyat va malaka, ya'ni ko'nikma kerak, deb o'ylaydilar; lekin juda kam odam sabr-toqat, tug'ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilish. Bunday bilimlarning yo'qligi oilaviy tarbiyada ko'plab xatolarga olib keladi, guruh rahbari ota-onalar bilan ishslashda buni hisobga olmay iloji yo'q.

Bu Jihatdan ota-onalarning shaxslarni tarbiyalashdagi quydagi qiyingchiliklari va xatolarini ajratib ko'rsatish mumkin: Ota-onalarning shaxslar bilan muomalasining yetishmasligi. Ular o'zлari, ishlari haqida kam so'zlab beradilar, o'quv bilim yurti o'quvchilar jamoasining hayoti, o'z shaxssining qiziqishlari, uning jamoat ishlari, bu ishga munosabati va hokazolar bilan kam qiziqadilar. Muomalaning yetishmasligi shaxslarning ota-onadan uzoqlashishiga olib keladi, kattalarni shaxsga yanada faolroq ta'sir ko'rsatish imkoniyatidan mahrum etadi. Shaxslarni mehnat jarayonlariga jalb etish orqali ularning mehnat tarbiyasini tashkil qila bilmaslik ona ishga ko'milib ketgan paytda shaxslar oilaviy ishlardan, turar joylardagi ishlardan va hokazolardan ozod etiladilar. Buning natijasida mehnatga mensimay munosabatda bo'ladilar.

Ota-onalar turmushida salbiy misollarning mavjudligi o'quv muassasasining pedagogik kuch-g'ayratini yo'qqa chiqaradi. Ota-onalar tarbiyaviy ta'sirining izchil emasligi — onda-sonda o'qishini tekshirish, biror nojo'ya ish uchun jazolash va hokazolar axloqiy immunitet hosil bo'lishiga yordam bermaydi. Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida taqiqlashlar sistemasi — ijobiy namuna asosida tarbiyalay bilmaslik, shaxs hayotini u har doim turli hattiharakatni mashk kiladigan tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir. Bu sistema shaxsning kattalar xohishiga salbiy munosabatini tug'diradi, mustaqillikning rivojlanishini susaytiradi. Harakatlarning o'quv bilim yurti bilan muvofiqlashtirilmaganligi yoki u bilan kelishmovchilik. Tarbiyalanuvchida pedagogga, o'quv bilim yurtiga ishonchsizlik paydo bo'ladi va o'sib boradi, bu esa uning kamchiliklarini tuzatishni qiyilanshtiradi, pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi. Ayrim otaonalarning shaxslar ulg'ayib borishi bilan tarbiyaviy faollikni susaytirib yuborishlari, bu esa shaxslarning ota-onalardan uzoqlashuviga, o'quv bilim yurtiga qiziqishi pasayishiga va hokazolarga olib keladi. Qarorlar qabul qilishda kechikish. Shaxs katta bo'lgandan keyin aqli kirib, tuzaladi deb o'ylash odatda o'zini oqlamaydi, ko'pincha qayta tarbiyalashni talab etadigan pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi. Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar qatoriga ota-

onalarning tarbiya usullarini bilishlarini, shaxslar ulg'ayishi bilan ularni o'zgartirishni bilmaslik yoki istamaslik ota bilan onaning talablari birligining, pedagogik odob, chidamning yo'qligi, ota-onalarning turmushning ma'naviy tomoniga zid tarzda moddiy tomoniga qiziqib ketishi va boshqalarni qo'shish mumkin.

Ota-onalar bilan ish shakllari va usullarini tanlashni odatda sinf rahbari o'z shaxsiy xususiyatlari tajribasini, o'quvchilarning oilalarida vujudga kelgan o'ziga xos xususiyatlarni, ota-onalarning bilim va tajribasini, tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda yuqorida ko'rsatib o'tilgan xatolar va qiyinchiliklarni, fe'l-atvor xususiyatlarini, o'quv muassasasi pedagoglar jamoasidagi muhitni, ota-onalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an'analarni va hokazolarni hisobga olib belgilaydi, tajribaning ko'rsatishicha, sinf rahbarining ota-onalar bilan hamkorligining ommaviy, sinf. Tarzidagi va yakka tartibdagi ish shakllarini oqilona birga qo'shib olib borish, bunda uning mazmunida izchillikka rioya etish orqali erishiladi. Ko'rsatilgan shakllar ta'rifi va ularni qo'llashning eng yuqori natija berishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

O'quvchilarni tarbiyalashda oilaning bir qancha vazifalari mavjud bo'lib ular quydagilardir: —oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o'rnatish, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'p bo'lishni ta'minlash; —oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash; —farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash; —bozor munosabatlariga mos bo'lgan kasb-hunar o'rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish; Shaxslarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish; Shaxslarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqlol g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash; Shaxslarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim berish; Farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish; O'z farzandlarining o'quv muassasasi, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lish; Ota-onalar o'zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi; Shaxslarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviy axloqiy tomonlarini shakllantirish; Oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo'naliшlarini uyg'un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas'ullikni ta'minlash; Sanitariya-gigiyenik, ekologik ko'nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish; Oila, o'quv bilim yurti va mahalla oldida o'z farzandlarining barcha hatti-harakatlari uchun javobgardir; Sog'ligida va aqlida nuqsonlari bo'lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-kor o'rgatishdan iborat.

Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o‘zbekona ta’bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo‘yish, yaxshi muallim qo‘liga topshirib savodini chiqarish, ilmli, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir.

## XULOSA

Mavzuga oid masalani chuqurroq tahlil qilish maqsadida Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi aksariyat maktablari o‘qituvchilar hamda o‘quvchilarning ota-onalari ishtirokida anonim kichik surovnama o‘tkazildi. So‘rovnama natijasida mакtab-ota-on, o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlар taxlil qilindi. So‘rovnama 15 ta savoldan iborat bo‘lib, “Farzandingiz kelajakda qaysi yo‘nalishni tanlashini istaysiz?”, “Farzandingiz bilan uyda birgalikda dars tayyorlaysizmi?”, “Farzandingiz bilan birga (ta’lim uchun) kuniga necha soat shug‘ullanasisiz?”, “Farzandingiz bilan birga uy vazifalarini bajarishda qiyinchiliklarga duch kelganmisiz?” kabi savolnoma matni tuzildi. Demak, savolnomalarda ota-onalar ko‘pchiligi farzandi oliv ma’lumotli bo‘lishini istashini anglaymiz. Shunga qaramay ota-onalarning 20 foizi farzandiga o‘zi istagan kasbni tanlash ixtiyorini bergen . So‘ralganlarning 7 foizi farzandi savdo sohasida ishlashini istaydi. Quvonarlisi respondentlarning ko‘pchiligi farzandining dars tayyorlash jarayonida muntazam qatnashadi, ozroq qismi esa ba’zi-ba’zida bu bilan shug‘ullanadi. Shug‘ullanishga vaqt topolmaydiganlar ham yo‘q emas. Ular orasida “2–3 soatdan ko‘p”, “darsi tugaguncha”, “ba’zida ikki soatdan ham ko‘p”, “bo‘s sh vaqtimda”, “har xil”, “tunda” kabi variantlar uchraydi. Quvonarlisi farzandi bilan birga shug‘ullana oladigan ota-onalar respondentlarning yarmini tashkil qilsa, afsuski ba’zi-ba’zida vaqt ajratadiganlar ham anchagina ekan. Bu esa bolaning bir o‘zi shug‘ullanishiga to‘g‘ri kelayotganidan dalolat. Ular ichida “har kuni vaqt ajratishga harakat qilaman”, “shug‘ullanaman”, “darslariga uncha tushunmaslik” kabi javoblar bor. Sir emaski, fanzandiga uy vazifalarini bajarishda ko‘maklashadigan aksariyat ota-onalar turli darajadagi qiyinchiliklarga uchraydi. Bular darslarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar, to‘g‘ri metodikani tanlay bilmaslik, bola psixologiyasini tushunmaslik, oilaviy muhit bilan bog‘liq va boshqa muammolar bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, farzandingizning o‘qituvchisidan uy vazifalari bo‘yicha yordam so‘raganmisiz? degan savollarga 44 foiz respondent “Ha” deb javob bergen bo‘lsa, 56 foizi o‘qituvchidan yordam olmasligini bildirgan. Bundan o‘qituvchi bu yo‘nalish bo‘yicha ota-onalar bilan kam ishlayotganini, ochig‘i hamkorlik faqat qog‘ozlarda bo‘layotganini aytish lozim. O‘qituvchining ota-onalar bilan ishslash mahoratiga ega bo‘limganligi fikrimizni ochiqlaydi. Natijalar bolalar ta’limida otaona nazorati baribir zarurligini ko‘rsatyapti. Negaki o‘zi qiziqib dars tayyorlaydigan boladan ko‘ra faqat ota-onalari nazorati ostida shug‘ullanayotgan o‘quvchining ham ko‘rsatkichi yuqori foizda. Ayniqsa respondentlarning 33 foizi o‘yinqaroq deya bergen javobi ham fikrimizni isbotlaydi. Albatta, nazorat bolani majburlashga, oqibatda esa o‘qishdan bezdirishga olib bormasligi kerak. Mustaqil ravishda qo‘shimcha ma’lumot

izlab, kerakli yechimni o‘zi topadigan ota-onalar ham oz emas – 22 foiz. Demak, turli fanlar bo‘yicha ommabop metodik qo‘llanmalar chop etish, qo‘shimcha ma’lumotlar, tushuntirishlar, topshiriqlarning yechimlarini turli nashrlar va internet saytlarda berib borish, ulardan foydalanishni ko‘pchilikka imkonli va oson qilish bu boradagi muammolar sezilarli darajada kamayishiga xizmat qiladi. Ular orasida dars tayyorlashni istamagan farzandini jazolaydiganlar ham oz bo‘lsa-da, bor. Shu kabi holatlarda ota-onalarga audio, video, kitob, qo‘llanma va maqola ko‘rinishidagi tavsiyalar yordamchi bo‘lishi mumkin. Demak, ota-onalar farzandining ta’limi uchun asosan fanlar bo‘yicha repetitor xizmati va chet tillarni o‘rganish uchun pulli xizmatlardan foydalanadi. Kam bo‘lsa-da, sport-sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari, kasb-hunarga o‘qitish va musiqiy ta’lim uchun haq to‘laydiganlar ham bor. So‘ralganlar orasida turli ijtimoiy qatlam vakillari borligi, ularning moliyaviy imkoniyatlari turfa xilligini hisobga olsak, farzandi ta’limi uchun ko‘pchilik pul sarflagan. Bundan ota-onalar “Eng yaxshi sarmoya – ta’limiga kiritilgan sarmoya” tushunchasiga tobora ko‘proq ega bo‘lib borayotganini anglash mumkin. Ota-onalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomadan shunday umumiy xulosaga kelish mumkin: ular farzandining ta’limiga befarq emas, iloji boricha ta’limda ishtirok etishga, bu jarayonda yuzaga keladigan muammolarni yechishga harakat qiladi. Ularga zarur tavsiyalar berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, ta’limdagi ishtirokini rag‘batlantirish, bu bo‘yicha motivatsiya berish muhimdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Nishonov U., Tursunov I. «Pedagogika kursi» Toshkent 1997 yil.
2. Babanskiy Y. K. «Pedagogika» M. 1988 yil.
3. Munavvarov A. K. «Pedagogika» Toshkent 1996 yil.
4. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldoshevaSh., Sariyev Sh Ona tili o‘qitish metodikasi. 2009
5. G‘afforova T., G‘ulomova X. 1-sinfda o‘qish darslari. –T.: Sharq, 2003. –126
6. Азимов, Ф. А. (2023). СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ВОЕННЫХ ЗНАНИЙ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У МОЛОДЕЖИ. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(13), 361-364.